

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 RAQAMLI ILMY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

ZOKIROV BEXZODJON ILXOMJON O‘G‘LI

**XIX ASR RUS VA XORIY SAYYOHLARINING “SAFARNOMA”
TURKUMIDAGI ASARLARIDA O‘RTA OSIYOGA OID
ETNOTOPONIMLAR**

07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

UO‘K: 94 (575) : 39
KBK: 63.5 (543) : 26.89
3-74

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Zokirov Behzodjon Ilhomjon o‘g‘li

XIX asr rus va xorij sayyohlarining “Safarnoma” turkumidagi asarlarida
O‘rta Osiyoga oid etnotoponimlar 3

Зокиров Бехзоджон Илхомжон угли

Этнотопонимы Средней Азии в произведениях “Путеводителях”
русских и иностранных путешественников XIX века..... 25

Zokirov Behzodjon Ilkhomjon ugli

Ethnotoponyms of Central Asia in the works of “Guidebooks” of
Russian and foreign travelers of the 19th century..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 54

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 RAQAMLI ILMY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

ZOKIROV BEXZODJON ILXOMJON O‘G‘LI

XIX ASR RUS VA XORIY SAYYOHLARINING “SAFARNOMA”
TURKUMIDAGI ASARLARIDA O‘RTA OSIYOGA OID
ETNOTOPONIMLAR

07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Tar939 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsuos.uz) va "ZiyoNET" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Doniyorov Alisher Xudayberdievich

tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Bo'riyev Omonullo

tarix fanlari doktori, yetakchi ilmiy xodim

Xudoyberganov Ravshan Turobovich

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «__» ____ soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent, Shahrisabz ko'chasi, 16-uy. Tel: (99871) 233-45-21; faks: (99871) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2023-yil «__» _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.M. Mannonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d, professor

R.A. Alimuxamedov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., dotsent

Q.Sh. Omonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Zamonaviy dunyo ilm-fan oldiga yangi-yangi talablar qo'yayotgan globallashuv davrida bashariyatning tarixan shakllangan milliy va nomoddiy merosini o'rganish, uni saqlab qolish hamda avlodlarga yetkazib berish tarix fani sohasidagi tadqiqotlarga qo'yilayotgan muhim vazifalardan biridir. Bu borada dunyo ilm-fanida tarixiy manbashunoslik, etnologiya, lingvistika, onomastika, toponimiya kabi fan sohalari tarix faniga qo'shimcha ravishda xalqning milliy qadriyatlari va nomoddiy merosini saqlab qolishda o'ziga xos amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlari, jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Belgiya, Rossiya, Turkiyadagi yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari¹, shuningdek, BMT va YUNESKO kabi yirik xalqaro tashkilotlari boshchiligida dunyo xalqlarining nomoddiy merosi, xususan, tarixiy joy nomlarini o'rganish, ularni fanlararo tadqiqot obyekti sifatida tilshunoslik xususiyatlari, tarixiy etimologiyasi hamda ularning mazmunini aniqlashga qaratilgan etnologik, toponimik, filologik tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu boradagi tadqiqotlarni rivojlantirish, manbalar bilan ishlash orqali hududga oid ma'lumotlarni aniqlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonda ham joy nomlariga nisbatan nomoddiy meros va milliy qadriyatlarining bir qismi sifatida qarash hozirgi kungacha muhim bo'lib, dunyo ilm-faniga hamnafas ravishda ularni tadqiqotlarga kengroq jalb etish masalasi ilmiy jamoatchilikning doimiy diqqat markazida turibdi. Urug'-qabila yoki xalq nomi, ya'ni etnonimlar vaqt o'tishi bilan hudud nomiga ko'chib, etnotoponim ko'rinishida xalqning lug'at boyligida saqlanib qoladi. Natijada, ularni tadqiq etish orqali ma'lum tarixiy davrdagi aholining etnik tarkibi va uni shakllantirgan etnik komponentlar haqida qimmatli ma'lumotlar olish mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktyabrdagi O'RQ-303-sonli "Geografik obyektlar nomlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi 295-sonli "Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida"gi Qarori hamda ushbu sohaga oid tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda²,

¹ <https://www.ucl.ac.uk/ssees/ucl-school-slavonic-and-east-european-studies-ssees> (School Slavonic and East European Studies; 1915), <https://www.history.ac.uk/about-us> (Institute of historical research; 1921), <http://www.scrss.org.uk/aboutus.htm> (Society for cultural relations with the USSR; 1924), <http://www.idref.fr/029745373/id> (Institute of Soviet and East European studies; 1963), <https://www.centralasianresearch.org/>(London Central Asia Resarch network; 1984), https://indiana.academia.edu/Departments/Uralic_and_Altaic_Studies (Departament Uralic and Altaic studies;); <https://ifeac.hypotheses.org/institut> (Institut français d'études sur l'Asie centrale, 1993); <https://iocs.hse.ru/csmecca> (Yaqin Sharq, Kavkaz va Markaziy Osiyoni tadqiq etish merkazi, 1930); <https://kora.metu.edu.tr/en> (Qora dengiz va Markaziy Osiyo tadqiqotlar markazi, 1992); <https://www.gfz-potsdam.de/en/> (GFZ German research center for Geosciences, 1992) kabi ilmiy markazlarda Markaziy Osiyo tarixi, etnografiyasi hamda tarixiy toponimiyasiga oid ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

² <https://lex.uz/docs/5841063>.

belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘rta Osiyoga XIX asrda kelgan rus va xorij sayyohlariga tegishli asarlarni o‘rganish ushbu asr oxiridan boshlanganligini hisobga olib, qo‘yilgan masalaga oid tadqiqotlarni xronologik-muammoviy jihatdan quyidagicha guruhlarga bo‘lib, tahlil qilindi:

Birinchi guruh tadqiqotlarini XIX asrning oxirlaridan to XX asrning 20-yillarigacha amalga oshirilgan ishlar tashkil etib, ushbu davrda V.I.Veselovskiy, I.N.Zaxarin, D.N.Logofet va S.V.Jukovskiy, M.A.Lyalina, I.V.Mushketov, A.I.Dobromislov va V.V.Bartoldlarning tadqiqotlari orqali etnotoponimlarni tadqiq etishga doir dastlabki bilimlar sohasi shakllandi.

Ikkinchi guruh tadqiqotlarini XX asrlarning 30-yillaridan to XX asrning 80-yillarigacha bo‘lgan davrda tadqiqot olib borgan M.M.Solovyev, N.A.Xalfin, O.A.Maslova, D.Y.Arapov, S.U.Umrzoqov, Z.I.Agafanova, A.A.Azatyana, S.P.Polyakov hamda mahalliy tadqiqotchilardan Sh.Inog‘omov, S.Tolstov, T.Fayziyev, B.Ahmedov, K.Shoniyozov, X.Doniyorov, M.Ermatov, H.Ziyayev, T.Jdanko, B.X.Karmisheva, S.S.Gubayevalarning ishlari tashkil qiladi. Ushbu davr birinchi davrga nisbatan samarali bo‘lib, toponimikaga oid bilimlar geografiyasi, metodologiyasi, tadqiqot va tahlil usullari kengaydi, tadqiqotchilar hamda izlanishlar salmog‘i sezilarli darajada ortdi.

Uchinchi guruhga oid tadqiqotlar, XX asrning 90-yillaridan hozirgi kungacha bo‘lgan davrni qamrab olib, unda K.Shoniyozov, I.Jabborov, Z.Arifxanova, U.Abdullaev, O.Bo‘riyev, A.Ilhomov hamda A.Malikovlarning tadqiqotlari hamda aynan etnotoponimlarni o‘rganishga qaratilgan T.Ernazarov, A.Atajanova, A.Turobov, A.Ergashev va Sh.Eshanqulovlarning izlanishlarida turli manbalar qatorida O‘rta Osiyoga tashrif buyurgan sayyohlarining asarlari ham qo‘shimcha manba bo‘lib xizmat qiladi.

To‘rtinchi guruhga xorij tadqiqotlari kiritilgan bo‘lib, J.T.Vulrich, O.Olufsen, M.A.Chaplichka, B.Budagov, S.Levi, S.N.Abashin, A.f.Kyugelgen, F.X.Skrayn, E.D.Ross, Ch.Adle, S.Beker, P.L.Roudik, A.S.Morrison, P.Golden, F.Starr va P.Sartorilarning tadqiqotlarida aynan “safarnomalar”dagi O‘rta Osiyoga oid joy nomlarining yoritilishiga oid ayrim jihatlar tadqiq etilgan. Albatta, ushbu tadqiqotlarning aksariyati yevrotsentrizm ta’sirida yozilgan bo‘lsa-da, lekin hududga oid toponimlarni tahlil qilishda yana bir tashqi fikr va mulohaza sifatida ahamiyatlidir.

Ushbu davr bo‘yicha mintaqa etnotoponimlarining tarixshunoslik va manbashunoslik jihatdan tahlil qilishda aynan “safarnoma” turkumidagi manbalarining yaxlit turkum sifatida tanlab olinishining asosini quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin. Birinchidan, mintaqaga tashrif buyurgan sayyohlarda O‘rta Osiyodagi bir-biridan mustaqil 3 ta xonlikning etnik tarkibi, hududi, siyosiy-tarixiy taqdiri yagona ekanligi bilan bog‘liq qarash mavjud edi. Ular “safarnoma”larida xonliklar aholisining asosiy qismini ko‘plab urug‘-qabilalardan iborat bo‘lgan

“o‘zbek xalqi” tashkil etadi, degan umumiy xulosaga kelgan. Bu esa, XIX asr o‘zbek xonliklarining toponimik manzarasini yaxlitlikda tasavvur qilish qilish, migratsion va etnointegratsion jarayonlarning mintaqa bo‘ylab bir-biriga chambarchas bog‘liqlikda sodir bo‘lganligini kengroq tushunib olishda “safarnoma”larning ixcham manbalar turkumi sifatidagi ahamiyatini oshiradi.

XIX asr mintaqa etnotoponimlari aks etgan mahalliy manbalar esa, nihoyatda ko‘pligi, aksariyat manbalar to‘liqligicha ilmiy muomalaga kiritilmaganligi, ushbu manbalardagi toponimik ma‘lumotlar esa ko‘proq lokal xususiyatga ega bo‘lib, asosan, ma‘lum tarixiy va siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lganlari aks etib, qolgan joy nomlariga to‘xtalishga ehtiyoj bo‘lmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, o‘zbek xonliklari davri tarixiga doir arxiv xujjatlari, xususan, soliq daftarlarida ko‘plab toponimik ma‘lumotlar qayd etilgan bo‘lsa-da, ularni kataloglashtirish borasidagi ishlar yakuniga yetmaganligi, soliq daftarlari yagona tartibda yuritilmaganligi³ (ba‘zan masjid qavmlari, ba‘zan qishloq oqsoqoli nomi, ba‘zida esa urug‘ nomlari asosida soliqlar yig‘ilgan) kabi jihatlar toponimik ma‘lumotlarni to‘plash va ular ustida tadqiqot olib borish jarayonini biroz murakkablashtiradi.

Dissertatsiya mavzusining bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi” kafedrasining “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari” nomli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga to‘liq mos keladi.

Tadqiqotning maqsadi XIX asrda O‘rta Osiyoga kelgan rus va xorij sayyohlarining asarlariga murojaat etish orqali o‘zbek xonliklari etnotoponimlarining tarixiy manba sifatidagi mohiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Etnotoponimlarning o‘rganilishiga doir tadqiqotlarni davriy va muammoviy jihatdan tizimlashtirib o‘rganish;

etnotoponimlarni tadqiq etishga oid nazariy-metodologik yondashuvlar va tasniflash masalasiga doir qarashlarni tahlil qilish;

rus sayyohlarining asarlaridagi O‘rta Osiyoga oid etnotoponimlarni aniqlash, tasnif va tahlil qilish;

xorij sayyohlarining “safarnomalar”da keltirilgan etnotoponimlarning joylashgan o‘rni, nomlanishi va o‘ziga xos jihatlarini qiyosiy o‘rganish;

rus va xorij sayyohlarining asarlaridagi etnotoponimlarning tuzilishi, tarkibi hamda ma‘nosiga ko‘ra tasniflarini ochib berish;

O‘rta Osiyo etnotoponimlari shakllanishida urug‘-qabila hamda ular tarkibidagi genonimlar va patronimlarning o‘rnini manbalar asosida yoritish;

XIX asr rus va xorij sayyohlarining “safarnoma”laridagi O‘rta Osiyoga oid etnotoponimlar tahlili natijalarini umumlashtirish, xulosalash hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini XIX asrda O‘rta Osiyoga kelgan rus va xorij sayyohlarining asarlari tashkil etadi.

³ Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. – Тошкент: Ўздавнашр, 1959. – 366 б.; Гуломов Я. Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент: Фан, 1959. – 326 б.; Жувонмардиев А. XVI–XIX асрларда Фарғонада ер-сув масалаларига доир. – Тошкент: Фан, 1965. – 182 б.

Tadqiqotning predmeti XIX asrga oid “Safarnoma” turkumidagi asarlar va ulardagi etnotoponimlarni tadqiq etishga oid ilmiy qarashlar, nazariyalar hamda yondashuvlar, kompleks tadqiqotlar, monografiya va risolalar, maqola hamda tezislari, xarita va statistik to‘plamlar, shuningdek, ekspeditsiya natijalaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-solishtirma usul, miqdoriy-kontent tahlil, sinxron, diaxron va kartografik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

XIX asr rus va xorij sayyohlarining “Safarnomalari”, mahalliy manbalar hamda xaritalari asosida hududning etnik tarkibi, geografiyasi, shahar va qishloqlari, ularning iqtisodiy-ijtimoiy va harbiy holatiga doir ma’lumotlar, avvaliga umumiy ma’lumotlarni to‘plash va xaritalashtirish, so‘ngra harbiy harakatlar va keyinchalik xom ashyo bazasiga aylantirish uchun mosligi, XIX asr oxirida esa mintaqa boshqaruvini to‘liq qo‘lga olish maqsadida amalga oshirilgani dalillangan;

O‘rta Osiyo toponimikasi va etnotoponimikasiga oid tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmidan jadallashganligi, XX asrlarning 60-yillari geografiya va toponimika fan sohasining asoslari, nazariyasi va metodologiyasining shakllanish davri bo‘lganligi, mahalliy tadqiqotchilar – T.Nafasov, Z.Do‘simov, Sh.Qodirova, J.Latipov hamda N.Oxunovlar joy nomlarini tasniflashning mintaqaga xos xususiyatlarini ochib berishi natijasida o‘zbek xalqining shakllanishida muhim rol o‘ynaganligi ochib berilgan;

“Safarnomalar”da keltirilgan O‘rta Osiyo, xususan, O‘zbekiston hududiga oid etnotoponimlarning aksariyati ijtimoiy majburiyat, geografik nomlarning pozitivlik, geografik nomlarning nisbiy negativlik, semantik muvofiqlik, toponimik vorislik, parallellik va qatorlar tamoyillari asosida shakllanganligi asoslangan;

aniqlangan etnotoponimlar etnogidronim (*Mingariq*), etnooronim (*Quramatog‘*), etnooykonim (*Qo‘ng‘irot*); shuningdek, totemistik (*Bahrin*), tamg‘a va maxsus belgilar (*Qonjig‘ali*), son hamda miqdor (*Qirq*), rang-tus (*Oq mang‘it*), ijtimoiy holat hamda mavqei (*Bevatan*), mashg‘ulot va kasb-kor (*Pichoqchi*), geografik joylashuv (*Ko‘lobi*), kishi ismlari (*Alieli*) kabi turli ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy ta’sir natijasida shakllanganligi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

XIX asr O‘rta Osiyo etnotoponimlariga doir rus va xorij sayyohlariga tegishli 50 dan ortiq safarnoma, 100 dan ortiq ilmiy adabiyot hamda monografiya, risola, dissertatsiya va konferensiya materiallari, 10 dan ortiq xaritalar aniqlanib, tarixiy manbashunoslik nuqtayi nazaridan yoritib berilgan;

O‘rta Osiyoga kelgan rus va xorij sayyohlariga tegishli “safarnomalar”ning paydo bo‘lishi, yaratilish maqsadi, natijalari, shuningdek, XIX asrda mintaqa toponimik qatlamidagi joy nomlarining aksariyat qismi urug‘-qabila hamda ular tarkibidagi genonimlar bilan bog‘liq ekanligi ko‘rsatib berilgan;

ko‘rsatilgan davrga oid manbalardagi etnotoponimlar o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini o‘rganish hamda hududning toponimik fonini boyitishga xizmat qilishiga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, mavzuning tadqiq etilgan jihatlari va kelgusida o‘rganilishi kerak bo‘lgan yo‘nalishlar borasida amaliy takliflar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada tarix fani, xususan, etnologiya va toponimika sohasida tan olingan yondashuv, tamoyil hamda usullarning qo‘llanilganligi, manbalardan olingan ma’lumotlar bilan birgalikda xaritalar, ko‘plab xorijiy tillarda yozilgan adabiyotlardan foydalanilganligi, ularning aksariyati mavjud

voqelikka mos kelishi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xalq nomoddiy merosining bir qismi bo'lgan etnotoponimlarni saqlash, qayta tiklash, toponimlarning yig'ma materiallarini tayyorlash, respublika toponimiyasi genofondini boyitish orqali tarixiy toponimik tadqiqotlarni nazariy va amaliy jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati dissertatsiyada umumlashtirilgan ma'lumotlardan hududlar to'g'risidagi etnografik va toponimik ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda rivojlantirish, xalqimiz ma'naviy qadriyatlariga yot, turli mafkuralashgan joy nomlarini o'zbek xalqining etnik tarixini o'zida mujassamlashtirgan toponimlar bilan almashtirish, shuningdek, O'zbekiston hududida mavjud o'ziga xos nomlar va ularning xususiyatlari aks etgan "Tarixiy toponimiya", "O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi", "Etnologiya" va "Manbashunoslik" kabi fanlardan darslik, o'quv qo'llanma, risola, monografiyalar va yo'l xaritalari yaratishda foydalanish imkoniyatini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XIX asrda O'rta Osiyoga kelgan rus va xorij sayyohlarining asarlaridagi etnotoponimlarni o'rganish natijasida olingan ilmiy tahlillar va nazariy xulosalar asosida:

XIX asr rus va xorij sayyohlarining "Safarnomalari", mahalliy manbalar hamda xaritalarni o'rganilishi natijasida hududning etnik tarkibi, geografiyasi, shahar va qishloqlari, ularning iqtisodiy-ijtimoiy va harbiy holatiga doir ma'lumotlar, avvaliga umumiy ma'lumotlarni to'plash va xaritalashtirish, so'ngra harbiy harakatlar va keyinchalik xom ashyo bazasiga aylantirish uchun mosligi, XIX asr oxirida esa mintaqa boshqaruvini to'liq qo'lga olish maqsadida amalga oshirilganini dalillashga doir tavsiyalar "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Etno" ko'rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston teleradiokanali davlat muassasasining 2023-yilning 27-iyunidagi 02-30-1022-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijalarining joriy etilishi teletomoshabinlarda XIX asr rus va xorij sayyohlari "Safarnoma"larining manbashunoslik ahamiyatiga doir tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qilgan;

ko'rsatilgan davr va manbalardagi O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston hududida aniqlangan etnotoponimlarning aksariyati ijtimoiy majburiyat, geografik nomlarning pozitivlik, geografik nomlarning nisbiy negativlik, semantik muvofiqlik, toponimik vorisiylik, parallellik va qatorlar tamoyillari asosida shakllanganini asoslashga doir tavsiyalar Xalqaro "Oltin meros" xayriya jamoat fondi tomonidan targ'ibot materiallari tayyorlashda, ziyoratgoh va qadamjolar, milliy va nomoddiy merosimiz tarixini targ'ib etishda foydalanilgan (Xalqaro "Oltin meros" xayriya jamoat fondining 2023-yilning 27-iyunidagi 01-37-27/06-23-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek xalqining milliy qadriyatlari va nomoddiy merosining bir qismi hisoblanadigan joy nomlarini etnografik, manbashunoslik, tarixiy adabiyotlar orqali chuqur o'rganish hamda ularni asrab avaylashga zamin hozirlagan;

XIX asr rus va xorij sayyohlarining "Safarnoma" turkumidagi asarlarida uchraydigan O'rta Osiyoga oid etnotoponimlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, O'rta Osiyo toponimikasi va etnotoponimikasiga oid tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmidan jadallashgani, XX asrlarning 60-yillari geografiya va toponimika fan sohalarining asoslari, nazariyasi va metodologiyasining shakllanishi davri bo'lgani, mahalliy

tadqiqotchilar: T.Nafasov, Z.Do'simov, Sh.Qodirova, J.Latipov, N.Oxunovlar joy nomlarini tasniflashning mintaqaga xos xususiyatlarini ochib berishi natijasida o'zbek xalqining shakllanishida muhim rol o'ynagan komponentlarni ilmiy o'rganish yanada chuqurlashganini aniqlashga oid tavsiyalar Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yilning 19-iyunidagi 19-06/231-son dalolatnomasi). Natijalarining joriy etilishi joy nomlariga doir bilimlarni yanada rivojlantirishda, egallangan bilimlarni yosh avlodga vorisiylik asosida o'rgatilishiga xizmat qilgan;

rus va xorij sayyohlarining asarlaridagi O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston hududiga oid etnotoponimlar etnogidronim (*Mingariq*), etnooronim (*Quramatog'*), etnooykonim (*Qo'ng'iroq*); shuningdek, totemizm (*Bahrin*), tamg'a va maxsus belgilar (*Qonjig'ali*), son va miqdor (*Qirq*), rang-tus (*Oq mang'it*), ijtimoiy holat va mavqe (*Bevatan*), mashg'ulot va kasb-kor (*Pichoqchi*), geografik joylashuv (*Ko'lobi*), kishi ismlari (*Alieli*) kabi turli ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ta'sir natijasida shakllanganligiga oid tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining konferensiya, seminar, davra suhbatlari, shuningdek, madaniy-ma'rifiy sohalardagi tadbirlarini tashkil etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining 2023-yilning 4-iyulidagi 14-07-785-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijalarining joriy etilishi umuminsoniy nomoddiy merosning ajralmas qismi hisoblangan toponimlardan yosh avlodni qadriyatlarga sodiqlik, millat va elatlar o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik, tolerantlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 6 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish nashr etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta (4 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnal) maqola e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 137 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi qisman yoritilgan, ishning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqotga doir nazariy-metodologik yondashuvlar va mavzu tarixshunosligi**” deb nomlangan birinchi bobida mavzuga doir manbalarning tasnifi hamda tahlili, toponim va etnotoponimlarni tasnif hamda talqin qilishdagi yondashuv, tamoyil va usullar yoritilgan.

Ushbu bobning “**Safarnoma**”lardagi **O’rta Osiyo etnotoponimlarining o’rganilishiga doir tadqiqotlar** deb nomlangan birinchi paragrafida mavzuga doir adabiyotlarning davriy-muammoviy tarixshunoslik tahlili ochib berilgan.

O’rta Osiyoga XIX asrda tashrif buyurgan rus va xorij sayyohlariga tegishli asarlarni o’rganish ushbu davrning oxiridan boshlanganligini hisobga olib, qo’yilgan masalaga oid tadqiqotlar xronologik-muammoviy jihatdan quyidagicha tasnif qilindi:

- 1) XIX asrning oxirlaridan XX asrning 20-yillarigacha bo’lgan davr tadqiqotlari;
- 2) XX asrning 30-yillaridan XX asrning 80-yillarigacha bo’lgan davr tadqiqotlari;
- 3) XX asrning 90-yillaridan hozirgi kungacha bo’lgan davr tadqiqotlari;
- 4) xorijiy tadqiqotlar.

Birinchi guruh tadqiqotlarini XIX asrning oxirlaridan to XX asrning 20-yillarigacha amalga oshirilgan ishlar tashkil etib, ularda “safarnoma”larning O’rta Osiyo xonliklari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotiga oid tomonlarini yoritish ustuvor hisoblangan. Shuningdek, ushbu davrda O’rta Osiyo tarixiy toponimiyasi, xususan, etnotoponimiyasini o’rganishga oid dastlabki bilimlar shakllana boshlaydi. Masalan, ushbu davrda ijod qilgan N.I.Veselovskiy, I.N.Zaxarin, D.N.Logofet va S.V.Jukovskiylarning tadqiqotlari⁴da O’rta Osiyo xonliklari va Rossiya imperiyasi munosabatlarning siyosiy-iqtisodiy jihatlariga katta o’rin berilgan bo’lib, nisbatan kamroq darajada toponimik ma’lumotlar keltirilgan.

Yuqoridagi mualliflardan farqli ravishda M.A.Lyalina, I.V.Mushketov, A.I.Dobromislov hamda V.V.Bartoldlarning tadqiqotlarida⁵ etnotoponimlarni manbashunoslik nuqtayi nazaridan o’rganishga ko’proq e’tibor qaratilgan. Masalan, V.V.Bartold O’rta Osiyo tarixiy toponimiyasiga oid maxsus asar yozmagan bo’lsa-da, u o’z tadqiqotlarida *vaqf, qarshi, rabod, robot, to’rtko’l, chorsu, shahriston, hisor, o’rchin* kabi ko’plab geografik, tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy atamalarni ta’riflaydiki, ular mintaqa toponimik qatlamidagi joy nomlarini shakllanishida faol ishtirok etadi⁶.

Bundan tashqari, N.I.Grodekov, A.A.Semyonov, A.E.Snesarov, N.F.Sityankovskiy, D.N.Logofet, M.S.Andreyev va S.S.Neustruyevlar⁷ning asarlarida

⁴ Веселовский Н.И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве. – Санкт-Петербург, 1877. – 364 с.; Захаринь (Якунинь) И. Н. Графъ В. А. Перовский и его зимний походъ въ Хиву. Часть первая. – Санкт-Петербург, 1901. – 115 с.; Логофет Д. Н. На границахъ Средней Азии. Книга 1. – Санкт-Петербург, 1909. – 245 с.; Жуковский С. Сношения России съ Бухарои и Хивой за последнее трехсолетье. – Петроградъ, 1915. – 225 с.

⁵ Лялина М. А. Путешествия по Туркестану Северцова и А.Федченки. – Санкт-Петербург, 1894. – 267 с.; Мушкетов И. В. Туркестанъ. Геологическое и орографическое описанье. – Санкт-Петербург, 1906. – 348 с.; Добромислов А.И. Ташкент: въ прошломъ и настоящемъ. – Ташкент, 1912. – 520 с.; Бартольд В. В. История культурной жизни Туркестана. – Ленинград, 1927. – 262 с.

⁶ Бартольд В. В. История культурной жизни Туркестана. – Ленинград: Изд. АН СССР, 1927. – 114 с.

⁷ Гродеков Н. И. Киргизы и каракиргизы Сыр-Дарьнской области. Томъ первый. Юридический бытъ. –Ташкент, 1889. – 299 с.; Семеновъ А. А. Этнографическые очерки Зерафшанскихъ горъ Каратегина и Дарваза. – Москва, 1903. –112 с.; Снесаров А. Е. Восточная Бухара. (Военная-географический очерк) // СМА. – Санкт-Петербург, 1906; Ситняковский Н. Ф. К генеалогической таблице узбеков рода Кунград // ИТОРГО. Т. 7. – Санкт-Петербург, 1907; Андреев М. С., Половцов А. А. Материалы по этнографии иранскихъ племянъ Средней Азии. – Санкт-Петербургъ, 1911. – 55 с.; Логофет Д. Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – Санкт-Петербург, 1911; Неуструев С. С. Путешествие в южную Бухару и исследование Шерабадской долины. – Петроградъ, 1915.

ko'plab etnonimlar va ularning joylashgan hududi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Ikkinchi guruh tadqiqotlari XX asrlarning 30-yillaridan to XX asrning 80-yillarigacha bo'lgan davrdagi ilmiy izlanishlarni o'z ichiga qamrab olib, ularda O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya va boshqa xorij mamlakatlari bilan aloqalari, tarixiy geografiyasi, shaharlarning xo'jalik, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayoti, etnografiyasi, toponimikasi, shuningdek, etnonim va etnotoponimlari batafsil tadqiq etilganligi bilan xarakterlanadi.

Misol uchun, O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya bilan munosabatlari M.M.Solovyev, N.A.Xalfin, O.A.Maslova, P.P.Ivanov, G.A.Hidoyatov va D.Y.Arapovlar⁸ning tadqiqotlarida o'rganilgan bo'lib, ulardagi asosiy e'tibor hududga olib boruvchi yo'llar, safar davomida uchragan shahar hamda qishloq nomlari, u yerda istiqomat qilgan aholi tarkibi masalalariga qaratilgan.

Boshqa bir guruh tadqiqotchilar, jumladan, S.U.Umrzoqov, Z.I.Agafanova, A.A.Azatyev, S.P.Polyakov va A.G.Malyavkinlar⁹ning mintaqa tarixiy geografiyasi va etnografiyasiga oid asarlarida "safarnoma"larda uchraydigan etnik nomga aloqador toponimlar hamda ularning joylashuviga oid ma'lumotlar aks etgan.

XX asrning ikkinchi yarmidan mahalliy mutaxassislar tomonidan hududga doir bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularning mintaqa toponimik va etnik holatini tahlil qilishdagi ahamiyati katta bo'ldi. Chunonchi, O.A.Suxareva, Y.G'.G'ulomov, A.R.Muhammadjonov, A.Juvonmardiyev, Y.F.Buryakov, O.Bo'riyev, A.O'rinboyev, M.Yunusxo'jaeva, U.Mirismoilova, Y.Qosimov kabi olimlarning tadqiqotlari¹⁰ orqali mintaqaga doir bilimlar ko'lamini kengaytdi.

XX asrlarning 60-yillari geografiya va toponimika sohalarining asoslari, nazariyasi hamda metodologiyasining shakllanish davri bo'ldi. Bu borada ittifoq miqyosida

⁸ Соловьев М. М. Экспедиция в Бухару в 1841–1842 гг. (при участии натуралиста А. Лемана). – Москва–Ленинград, 1936. – 216 с.; Маслова О. В. Обзор русских путешествий и экспедиций в Среднюю Азию. Часть I (1856–1869). – Ташкент: Фан, 1955. – 86 с.; Иванов П. П. Очерки по истории Средней Азии (XVI – середина XIX вв.). – Москва, 1958. – 250 с.; Халфин Н. А. Присоединение Средней Азии к России (60–90е годы XIX в.). – Москва: Наука, 1965. – 472 с.; O'sha muallif: Россия и ханства Средней Азии (первая половина XIX века). – Москва: Наука, 1974. – 406 с.; Хидояттов Г. А. Из истории англо-русских отношений в Средней Азии в конце XIX в (60–70-х гг.). – Ташкент: Фан, 1969. – 456 с.; Арапов Д. Ю. Бухарское ханство в русской востоковедческой историографии. – Москва: Изд-во Моск. ун-та, 1981. – 128 с.

⁹ Агафанова З. И., Халфин Н. А. А. П. Федченко сборник документов (Русские ученые-исследователи Средней Азии). – Ташкент, 1956. – 229 с.; Умурзаков С. У. Очерки по истории географических открытий и исследований Киргизии. – Фрунзе, 1959. – 154 с.; Азатьян А. А. и др. История открытия и исследования советской Азии. – Москва: Мысль, 1969. – 540 с.; Этнографические очерки узбекского сельского населения / Отв. ред. Г.И. Васильева, Б.Х. Кармышева. – Москва: Наука, 1969. – 295 с.; Поляков С. П. Историческая этнография Средней Азии и Казахстана. – Москва, 1980. – 172 с.; Малявкин А. Г. Историческая география Центральной Азии. (Материалы и исследования). – Новосибирск: Наука, 1981. – 340 с.

¹⁰ Сухарева О. А. К истории городов Бухарского ханства (Историко-этнографические очерки). – Ташкент, 1958. – 150 с.; Гуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент: Фан, 1959. – 326 б.; Жувонмардиев А. XVI–XIX асрларда Фарғонада ер-сув масалаларига доир. – Тошкент: Фан, 1965. – 182 б.; Муҳаммаджонов А., Неъматов Р. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. – Тошкент, 1967. – 224 б.; Муҳаммаджонов А. Р. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи. – Тошкент: Фан, 1972. – 376 б.; Буряков Ю. Ф. К исторический топографии древнего и средневекового Самарканда. – Ташкент: Фан, 1981. – 146 с.; Бўриев О., Ўринбоев А. Тошкент Муҳаммад Солих тавсифида (XIX аср). – Тошкент: Фан, 1983. – 57 б.; Юнусхўжаева М., Мирисмоилова У. Тошкент тарихига оид ҳужжатлар. – Тошкент: Фан, 1983. – 22 б.; Тошев Х. XIX аср охири – XX аср бошларида Зарафшон ўзбекларининг ҳўжалиги ва ижтимоий турмуши. – Тошкент: Фан, 1987. – 102 б.; Қосимов Й. Наманган тарихидан лавҳалар (1917 йилгача). – Тошкент: Шарк, 1990. – 98 б.

tadqiqotlar olib borgan¹¹ E.M.Murzayev, I.V.Sergeyev, V.A.Juchkevich, A.Nikonov, E.M.Pospelov va A.V.Superenskaya; mahalliy tadqiqotchilardan¹² H.Hasanov, Z.Do'simov, Z.Qodirova, X.Latipov, S.Qorayev hamda N.Oxunovlarning izlanishlari natijalari joy nomlarini tadqiq etishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishda muhim bo'ldi

Mintaqaga oid etnotoponimlarni o'rganishga doir S.S.Gubayeva, B.X.Karmisheva, T.To'ychiyev, S.Nayimov, T.Nafasov, Q.Marqayev, S.Qorayev hamda K.Shoniyozov kabi mahalliy tadqiqotchilarning asarlari¹³ XIX asrda O'rta Osiyoga tashrif buyurgan rus va xorij sayyohlarining asarlaridan amaliy foydalangan holda, olingan etnografik izlanish natijalari bilan qiyosiy o'rganildi va muhim xulosalar chiqarishga yordam berdi.

Uchinchi guruhga oid tadqiqotlar XX asrning 90-yillaridan to hozirgi kungacha bo'lgan davrni qamrab olib, mintaq xalqlariga oid bilimlarni mustahkamlash, yangi izlanishlar olib borish va mavjud ma'lumotlarni aniqlashtirish davri bo'ldi.

Avvalo, izlanishlarning kattagina qismi o'zbek xalqi etnografiyasini boyitishga qaratildi. Etnonimlar va etnotoponimlar o'zbek xalqi etnogenezi hamda etnik tarixini yoritishda qo'shimcha manba sifatida ko'rib, bir qator izlanishlarda ularga alohida o'rin ajratildi. Jumladan, K.Shoniyozov, I.Jabborov, Z.Arifxanova, U.Abdullayev, O.Bo'riyev, A.IIhomov hamda A.Malikovlarning tadqiqotlari¹⁴da turli manbalardagi etnik nomlar qatorida XIX asrda O'rta Osiyoga tashrif buyurgan rus va xorij sayyohlarining asarlari ham manbashunoslik hamda tarixshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilgan.

¹¹ Мурзаевы Э. В. Словарь местных географических терминов. – Москва, 1959. – 303 с.; Мурзаев Э. М. Средняя Азия (физ-геогр. характеристика). – Москва: Изд. АН СССР, 1962. – 648 с.; Сергеев И. В. Тайна географических названий. – Москва: Детская литература, 1963. – 236 с.; Принципы топонимики / Под ред. В. А. Никонова и О. Н. Трубочева. – Москва: Наука, 1964. – 151 с.; Никонов А. Введение в топонимию. – Москва: Наука, 1965. – 180 с.; Жучкевич В.А. Общая топонимика. – Минск: Высшая школа, 1968. – 432 с.; Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. – Москва: Наука, 1973. – 366 с.; Пospelov Э. М. Топонимика на службе географии. – Москва: Мысль, 1979. – 210 с.; Суперанская А. В. Что такое топонимика? – Москва: Наука, 1985. – 177 с.

¹² Хасанов Х. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – 81 б.; Нафасов Т. Қашқадарё область топонимлари. Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент, 1968. – 301 б.; Дўсимов З. Шимолий Хоразм топонимлари. Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент, 1970. – 183 б.; Кадырова Ш. Микротопонимы Ташкента. – Дисс...канд. филол. наук. – Ташкент, 1970. – 138 с.; Латипов Ж. Топонимии города Маргилана и его окрестностей: Автор. дисс.... канд. филол. наук. – Ташкент, 1975. – 36 с.; Охунов Н. Топонимия Кокандской группы районов. Дисс...канд. филол. наук. – Ташкент, 1978. – 249 с.; О'sha muallif: Тил ва жой номлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1988. – 23 б.; Найимов С.Н. Ойконимы Бухарской области. Дисс. кан. филол. наук.–Ташкент, 1984. – 239 б.

¹³ Губаева С. С. Патронимия и топонимии Ферганской долины / Ономастика Средней Азии / Под. ред. В. А. Никонов и А. М. Решетов. – Москва: Наука, 1978. – С. 28–38; Кармышева Б. Х. Слово “аймак” в этнонимии и топонимии Узбекистана / Ономастика Средней Азии. – Фрунзе: Илим, 1980. – С. 24–34; Тўйчиев Т. Этнотопонимы и этническая география Джамбайского района / Ономастика Средней Азии. – Фрунзе: Илим, 1980. – С. 46–54; Наимов С. Бухоро области этноойконимлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1984. – №3. – Б. 24–27; Нафасов Т. Жанубий Ўзбекистон топонимиясининг этнолингвистик анализи. – Тошкент, 1985. – 84 б.; Нафасов Т., Марқасев Қ. Узбекские этноантропоним / Ономастика Узбекистана. – Ташкент, 1987. – С. 36–39.; Карасев С. Узбекская этнонимика / Ономастика Узбекистана. – Ташкент, 1989. – С. 192–195; Шаниязов К. Ш. Этнонимы – как источник для изучения этнической истории узбекского народа (на материалах Кашкадарьинской области) / Ономастика Узбекистана. – Ташкент, 1989. – С. 195–196.

¹⁴ Шониёзов К. Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 466 б.; Ильхамов А. и др. Этнический атлас Узбекистана / Институт “Открытое Общество” Фонд содействия. – Ташкент: Узбекистан, 2002. – 455 с.; Бўриев О. Жанубий Ўзбекистон аҳолисининг этник тарихидан / Тарих, мустақиллик ва миллий ғоя. – Тошкент, 2001. – Б. 201–203; Арифханова З. Этнический состав населения Узбекистана в 20 годы XX век и национальная идентичность узбеков / Ўзбекистон этнологиясининг долзарб муаммолари. – Тошкент-Наманган, 2007. – С. 21–26; О'sha muallif: Узбеки. – Москва: Наука, 2011. – 709 с; Жабборов И. Ўзбеклар. – Тошкент: Шарқ, 2008.

To‘rtinchi guruhga oid adabiyotlarga xorijiy tadqiqotlar kiritilgan bo‘lib, ulardagi ma‘lumotlar avvaliga “Katta o‘yin siyosati”ning bir qismi sifatida o‘rganilgan bo‘lsa, keyinchalik “sovetshunoslik” negizida tadqiq etildi.

Jumladan, xorijlik olimlar – J.T.Vulrich, O.Olufsen, M.A.Chaplichka, B.Budagov, S.Levi, S.N.Abashin, A.f.Kyugelgen, F.X.Skrayn, E.D.Ross, Ch.Adle, S.Beker, P.L.Roudik, A.S.Morrison, P.Golden, F.Starr hamda P.Sartorilarning tadqiqotlari¹⁵da aynan “safarnoma”lardagi O‘rta Osiyoga oid joy nomlarining yoritilishiga doir ayrim jihatlar tadqiq etilgan. Albatta, ushbu tadqiqotlarning aksariyati yevrotsentrizm ta‘sirida yozilgan bo‘lsa-da, lekin hududga oid toponimlarni tahlil qilishda mulohaza sifatida ahamiyatlidir.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi **“Etnotoponimlarni tadqiq etishga doir nazariy-metodologik yondashuvlar”**, deb nomlangan bo‘lib, unda manbalarda aniqlangan etnonim va etnotoponimlarni tahlil qilishga doir yondashuv, tamoyil va usullar ochib beriladi.

Etnotoponimlarni tarixiy jihatdan chuqur o‘rganish uchun fanlararo usullarni qo‘llash, muammoga turli nigoj bilan qarash imkonini beradi. Shundan kelib chiqib, etnotoponimlarni tadqiq etishga doir yondashuvlarni *etnolingvistika, tarixiy manbashunoslik, geografiya, kartografiya* fanlari kesimida va ularning nazariy-metodologik yondashuvlari yordamida o‘rganish maqsadga muvofiq: *tarixiylik, qatorlar, geografik nomlarning pozitivligi, geografik nomlarning nisbiy negativligi, semantik muvofiqlik, toponimik vorislik, parallellik, keng qamrovli tadqiqot kabi tamoyillar*.

Yuqorida tilga olingan tamoyillar asosida tadqiqotni olib borish joy nomlarini tahlil qilish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, izlanuvchiga ilmiy tadqiqot yo‘nalishidan og‘maslik va xolisona tarixiy haqiqatni izchil yoritib berishga yaqindan yordam beradi. Yuqoridagi tamoyillardan tashqari etnotoponimlarni tabdil qilishda bir nechta asosiy tadqiqot usullariga ham tayaniladi. Ular sirasiga *statistik, diaxron, sinxron, geografik, paleogeografik, qiyosiy-solishtirma, kartografik va tarixiy usullarni* kiritish mumkin.

¹⁵ Woolrych J. T. Perowne. Russian Hosts and English Guests in Central Asia. – London: The Scientific Press, Limited, 1898. – 250 p.; Olufsen O. Through the Unknown Pamirs. – London: Willam Heineman, 1904. – 278 p.; Ellsworth Huntington. The pulse of Central Asia. – Boston&New York, 1907. – 450 p.; Czapliska M. A. The Turks of Central Asia in history and at the present day. – Oxford: Clarendon Press, 1918. – 240 p.; Брегель Ю. Э. Расселение туркмен и Хивинском ханстве вв. / Страны и народы Востока. Вып. 1. География, этнография, история. – Москва, 1959. – С. 242–256; O‘sha muallif: К изучения земельных отношений в Хивинском ханстве(источники и их использование) / Письменные памятники Востока. – Москва: Наука, 1972. – С. 28–103; Budagov B. Turkic topomums of Eurasia. – Baku: Elm publishing, 1997. – 174 p.; Scott C. Levi. The Indian Diaspora in Central Asia and its Trade 1550–1900. – Leiden-London-Koln: Brill, 2002. – 333 p.; Bregel Yu. E. An historical atlas of Central Asia. – Leiden-Boston: Brill, 2003. – 123 p.; Абашин С. Н., Бушков В. И. Ферганская долина: этничность, этнические процессы, этнические конфликты. – Москва: Наука, 2004. – 224 с.; Анке фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII–XIX вв.). – Алматы: Дайк Пресс, 2004. – 516 с.; Frensis Henry Skrine&Edward Denison Ross. The heart of Central Asia: a history of Russian Turkestan and the Central Asian Khanates from the Earliest Times. – London&New York: Routledge Curzon Taylor&Francis Group, 2005. – 322 p.; Chahryar Adle and others. History and Civilizations of Central Asia. Towards the contemporary period: from the mid-nenteenth to the end of the twentieth century. Volume VI. – Paris: UNESCO, 2005. – 993 p.; Seymour Becker. Russia’s Protectorates in Central Asia Bukhara and Khiva, 1865–1924. – London&New York: Routledge Curzon Taylor&Francis Group, 2005. – 370 p.; Peter L. Roudik. The history of the Central Asian Republics. – London: Greenwood Press, 2007. – 237 p.; Morrison A. S. Russian Rule in Samarkand 1868–1910. – New York: Oxford Univercity press, 2008. – 395 p.; Peter Golden. Central Asia in World History. – Oxford: Unvercity Press, 2011. – 193 p.; Frederick Starr S. Ferghana Valley the heart of Central Asia. – New York&London, 2011. – 465 p.; Paolo Sartori. Explorations in the Social History of modern Central Asia (19th – Early 20th century). – Leiden&Boston: Brill, 2013. – 348 p.; Scott C. Levi. The Rise and fall of Khoqand 1709–1876. – Pittsburgh: Univercity of Pittsburgh Press, 2017. – 289 p.

Yuqorida keltirilgan tamoyillar va usullar toponimik tadqiqotni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bir vaqtning o‘zida bir nechtasini hamjihat foydalanishni taqozo etadi. Chunki, toponimlarni xolisona tahlil va tabdil qilish uchun birgina tamoyil yoki usulning o‘zi yetarli bo‘lmay, uni har tomonlama o‘rganish natijalarni ishonchli bo‘lishini ta’minlab beradi. Natijaga qay tamoyilga asoslanib va qaysi usulni qo‘llab erishish har bir tadqiqotchining o‘ziga bog‘liq.

Mazkur bobning “*Etnotoponimlarni tasniflash masalasiga oid qarashlar tahlili*” deb nomlangan uchinchi paragrafida etnotoponimlarni turli tashqi va ichki jihatlariga asosan, guruhlariga ajratib, o‘rganish jarayonini yoritib berilgan.

Har bir yordamchi tarix sohasining o‘z tasniflash tamoyillari bo‘lgani kabi toponimiyaning ham o‘ziga xos tasniflash usullari mavjud bo‘lib, ularni qo‘llash tadqiqotni tizimli amalga oshirishini ta’minlab beradi.

Tadqiqot hududi va davriga oid toponimlarni ma’lum tasnif asosida o‘rganish an’anasi XIX asrning so‘nggi choragidan boshlangan. Shunday bo‘lsa-da, sohada aynan joy nomlarining tasnifi muammosi ko‘tarilgan dastlabki tadqiqotlar XX asrning 20-30-yillarida paydo bo‘lgan. Mazkur davrdagi ilk tasnif na’munalari V.P.Semyonov-Tyanshanskiy va A.M.Selishchevlarga tegishli bo‘lib, ushbu tadqiqotlarda tarixiy toponimlar 7 xil kategoriya bo‘yicha tasniflash usuli ishlab chiqildi va mazkur usul keyingi davrdagi ilmiy izlanishlarga asos bo‘lib xizmat qildi¹⁶.

XX asrning 60-70-yillarida tasniflash jarayonida rivojlanish kuzatilib, yangi o‘ziga xos usullar ishlab chiqila boshlandi. Ayniqsa, tasniflashning yangi guruhlarini taklif qilgan V.Tashitskiy, V.A.Juchkevich, A.A.Superenskaya va E.M.Murzayevlarning tadqiqotlari¹⁷ alohida diqqatga sazovor. Ushbu tadqiqotlarda geografik joy nomlarini tasniflashda mantiqiy izchillikka e’tibor kuchaygan.

XX asrning 80-yillarida faoliyat olib borgan E.M.Murzayev joy nomlari tasnifini yanada kengaytirib, har bir katta guruhni ham qismlarga ajratdi. Masalan, geografik nomlarni tasniflashni 5 guruhi, ya’ni *oronimlar, gidronimlar, tabiiy o‘simliklar mavjud joy nomlari, aholi yashash maskanlarining nomlari, ko‘cha, maydon va ko‘priklar nomlari* shaklida tasniflashni taklif qilgan edi¹⁸.

XX asrning 60-70-yillarida Sovet davlatida kuzatilgan nomlar va ularning tasnifiga doir qarashlar mahalliy tadqiqotchilarning yondashuvlariga ham ta’sir ko‘rsatib, ularning izlanishlarida ham bir nechta tasnifga doir fikrlarni uchratish mumkin. Masalan, T.Nafasov, Z.Do‘simov, Sh.Qodirova, J.Latipov hamda N.Oxunovlarning tadqiqotlarida joy nomlarini tasniflashning mintaqaga xos xususiyatlari yoritib berildi¹⁹.

O‘zbek toponimikasi yo‘nalishida etnotoponimlarni alohida tasnifning bir qismi sifatida o‘rganish ilk bora Z.Do‘simovning ishlarida ko‘zga tashlanadi. Xususan, mazkur

¹⁶ Семенов-Тянь-Шанский В. П. Как отражается географический пейзаж в народных названиях населенных мест? Землеведение. – 1924. – Т.26, Вып. ½. – С. 133–158; Селищев А. М. Из старой о новой топонимики. –Труды Московского Института истории, философии и литературы, – М., 1939. Т 5. – С. 124–174.

¹⁷ Тащицкий В. Место ономастики среди других гуманитарных наук / Вопросы языкознания. – Москва, 1961. – №2. – С. 3–11; Жучкевич В. А. Общая топонимика. – Минск, 1968. – С. 90; Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. – Москва: Наука, 1970. – 365 с.; Мурзаев Э. М. География в названиях. – Москва: Наука, 1982. – С. 180.

¹⁸ Мурзаев Э. М. География в названиях. – Москва: Наука, 1982. – С. 92.

¹⁹ Нафасов Т. Қашқадарё область топонимлари. Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент, 1968. – 301 б.; Дўсимов З. Шимолий Хоразм топонимлари. Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент, 1970. – 170 б.; Латипов Ж. Топонимии города Маргилана и его окрестностей: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Тошкент, 1975. – С. 36; Охунов Т. Топонимия Кокандской группы районов: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1978. – 24 с.

olimning 1970-yilda “Shimoliy Xorazm toponimlari” mavzusida himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyasida toponimlarni kelib chiqishiga ko‘ra, *etnotoponimlar, antrotoponimlar, oronimlar, gidronimlar va neotoponimlarga* bo‘lgan²⁰. Toshkent mikrotoponimlari bo‘yicha tadqiqot o‘tkazgan Sh. Qodirova esa joy nomlarini 4 ta katta guruhga bo‘lib, tasniflagan²¹.

XX asrning 80-90-yillarida toponimik tadqiqotlar davom etib, nomlarni tasniflari borasidagi qarashlar va yondashuvlar ham rivojlanib bordi. Xususan, ushbu davrga oid S.Nayimov, X.Xolmo‘minov, T.Ernazarov va O.Begimovlarning tadqiqotlarini alohida qayd etish darkor²².

Mustaqillik yillarida etnotoponimlarni tadqiq etish yangi bosqichga o‘tib, ularni shartli ravishda ikki guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

Birinchi guruh – A.Aslonov, S.Qorayev, S.Tursunov, X.Bo‘riyeva, S.G‘aybullayev, K.Ashurova va X.Berdiyevlar²³ning toponimik tasnif qilishning mintaqaviy hamda mahalliy xususiyatlariga doir tadqiqotlari;

ikkinchi guruh – A.Atajonova, A.Turobov, A.Ergashev hamda Sh.Eshanqulovlarning aynan etnotoponimlarni tasnif qilishga doir tadqiqotlari²⁴.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, toponimlarni tasniflashning turlari juda ham ko‘p bo‘lib, unda har bir muallif o‘z tadqiqot hududi, geografiyasi, etnik tarkibi, tarixiy davri, maqsadi, obyekti va etimologiyasiga ko‘ra turlicha tasnif guruhlarini tanlagan.

Dissertatsiyaning **“O‘rta Osiyoga oid etnotoponimlarni o‘rganishda rus va xorij sayyohlarining asarlari manba sifatida”** deb nomlangan ikkinchi bobida sayyohlar asarlarining manbaviy tahlili amalga oshirilgan bo‘lib, uning dastlabki paragrafi **“Rus sayyohlarining asarlarida O‘rta Osiyo oid etnotoponimlar”** masalasini ochib berishga bag‘ishlangan.

Ma‘lumki, O‘rta Osiyoga yuborilgan sayohatchilar turli maqsadlarni ko‘zlab hududlarni o‘rganish uchun jo‘natilgan. Ularning maqsadlari turlicha bo‘lganligi sababli asarlari ham shunga mos ravishda bir-biridan farqlanadi.

O‘rganilayotgan hududga jiddiy maqsadni ko‘zlab yuborilgan birinchi missiya F.Nazarov tomonidan amalga oshirilgan. Qo‘qon xonligi haqida dastlabki ma‘lumotlar,

²⁰ Dўsimов З. Шимолий Хоразм топонимлари. Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент, 1970. – 170 б.

²¹ Кадырова Ш. Микропонимы Ташкента. Дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1970. – С. 75–76.

²² Найимов С. Н. Ойконимы Бухарской области. – Дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – 239 с.; Холмўминов Х. Бойсун ноҳияси ва унинг атроф худудлари микропонимлари. Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент, 1993. – 187 б.; Эназаров Т. Ж. Шахрисабз худуди жой номларининг тарихий-қийсий таҳлили: Филол. фан. ном. дисс. автор. – Тошкент, 1993. – 15 б.; Бегимов О. Т. Жанубий Ўзбекистон топонимларининг ўзлашган қатлами. Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент, 1993. – 124 б.

²³ Аслонов А. С. Шофиркон тумани микропонимиясининг лингвистик таҳлили. Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент, 2005. – 179 б.; Қораяев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – 240 б.; Ўринбоев Б. Жиззах топонимлари таъбири. – Самарқанд: СамДУ, 2007. – 204 б.; Турсунов С. Сурхондарё вилояти топонимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – 149 б.; Бўриева Х. Тошкент шаҳрининг тарихий топонимияси. – Тошкент: Ноширлик ёғдуси, 2009. – 222 б.; Ғайбуллаев С. Қорақўл топонимлари. – Тошкент: Turon Zamin Ziyo, 2016. – 96 б.; Ашурова К. Боғдод ва боғдодликлар. – Тошкент: Turon Zamin Ziyo, 2016. – 272 б.; Бердиев Х. Тарихий топонимлар таҳлили (Нурота воҳаси топонимик материаллари асосида). – Тошкент: Turon Zamin Ziyo, 2020. – 186 б.

²⁴ Атажонова А. Ж. Хоразм этнопонимлари ва уларнинг луғавий асослари. Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент, 1996. – 189 б.; Тurobov А. Самарқанд вилояти этноним ва этноойконимларининг таҳлили. Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент, 1999. – 148 б.; Эргашев А. А. Андижон вилояти этнопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи. Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент, 2012. – 138 б.; Эшанқулов Ш. Э. XX аср Зарафшон воҳаси аҳолисининг этник таркиби (топонимик материаллар асосида): Тарих. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автор. – Тошкент, 2020. – 50 б.

yo‘l xaritasi va shaharlari tavsifi Rossiya imperiyasi tasarrufida shakllangandan so‘ng navbat hali kam o‘rganilgan Xivaga keldi. Ushbu hududni o‘rganish maqsadida 1819-1820-yillarda Xivaga N.Muravyov safar uyushtirdi. N.Muravyov o‘z safari davomida *Qiyot, Qipchoq, Qo‘ng‘irot* kabi qal‘alarni qayd etib²⁵, bu kabi o‘zbek urug‘larining nomi bilan bog‘liq joy nomlari keyingi davrda kelgan sayyohlarning “Safarnomalar”ida tadrijiy ravishda ko‘payib borgan.

XIX asrning 20-yillaridan boshlab O‘rta Osiyo yuborilayotgan elchilik missiyalari tarkibida zobitlar bilan bir qatorda tarjimon, sharqshunos, tarixchi, topograf, kartograf, geodezist, etnograf kabi mutaxassislar ham jalb etila boshlandi. Xususan, 1820-yilda O‘rta Osiyoni yanada kengroq o‘rganish maqsadida A.Negri boshchiligida yirik elchilik missiyasi yuborildi. Mazkur elchilik missiyasi siyosiy sohada katta yutuqlarga erishmagan bo‘lsa-da, O‘rta Osiyoni etnografik jihatdan o‘rganishga muvaffaq bo‘ldi.

XIX asrning 30-yillaridan e‘tiboran, O‘rta Osiyoga tashrif buyurgan rus sayyohlarining salmog‘i nisbatan ortib, ularning ma‘lumotlari ham boyib bordi. Xususan, mazkur davrda P.I.Demezov va Y.V.Vitkevich hamda P.Savelyevlar²⁶ning Buxoro amirligiga qilgan sayohati e‘tiborga molik bo‘lsa-da, ularning asarlarida asosan, hududning yirik makrotoponimlari haqida ma‘lumot keltirilgan, xolos.

XIX asrning 40-yillaridan boshlab, rus sayyohlarining O‘rta Osiyoga tashrifi sezilarli darajada oshgan. Xususan, ushbu davrda tashrif buyurgan tog‘ injeneri va diplomat K.F.Butenev, tabiatshunos A.Leman hamda sharqshunos V.N.Xanikovning safar xotiralari Buxoro amirligidagi etnotoponimlar va etnonimlarni o‘rganishdagi muhim manbalardan hisoblanadi. O‘z o‘rnida shuni alohida qayd etish kerakki, ularning “Safarnomalar”i sovet davrida M.M.Solovyev, N.A.Xalfin va D.Y.Arapovlar²⁷ tomonidan keng ko‘lamda tadqiq etildi.

O‘rta Osiyoga yuborilgan sayohatchilar va maxsus ekspeditsiyalardan tashqari, hudud Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shib olingandan so‘ng yuborilgan harbiy zobitlar ham o‘z esdaliklarida qimmatli ma‘lumotlar qoldirgan. Xususan, P.I.Pashino, L.V.Kostenko, A.D.Grebenkin, A.P.Xoroshxin, A.A.Kushakevich hamda L.A. Kunlarning tadqiqotlari²⁸ni shunday asarlar sirasiga kiritish mumkin.

O‘rta Osiyoni ilmiy o‘rganishda “Rus geografiya jamiyati” olimlarining tadqiqotlari o‘rni beqiyosdir. Ushbu guruhga mansub asarlarga N.A.Seversov, A.P.Fedchenko, V.V.Radlov va A.Middendorf kabi olimlarning ilmiy izlanishlari²⁹,

²⁵ Муравьев Н. Путешествие въ Туркмения и Хиву въ 1819 и 1820 годахъ. Ч.2. – Москва, 1822. – С. 32–33.

²⁶ Записки о Бухарском ханстве / Отчеты П. И. Демезона и И. В. Виткевича. – Москва: Наука, 1983. – 154 с.; Савельев П. С. Бухара в 1835 г / С присоединением известий обо всех европейских путешественниках, посещавших этот город до 1835 года. – Санкт-Петербург, 1836. – С. 26.

²⁷ Соловьев М. М. Экспедиция в Бухару в 1841–1842 гг. (при участии натуралиста А. Лемана). – Москва-Ленинград, 1936; Халфин Н. А. Россия и ханства Средней Азии (первая половина XIX века) – Москва: Наука, 1974; Арапов Д. Ю. Бухарское ханство в русской востоковедческой историографии. – Москва: Изд-во Моск. ун-та, 1981. – 128 с.

²⁸ Пашино П. И. Путевия заметки Туркестанский Край въ 1866. – С-Петербург, 1868; Костенко Л. В. Путешествие въ Бухару Русской миссии въ 1870 году. – С-Петербург, 1871; Кун А. Очерк Коканского ханства // Туркестанский сборник. Том 159. – СПб, 1877; Хорошхин А. П. Сборникъ статей касающихся до Туркестанского края. – СПб., 1876; Кушакевич А. А. Сведения о Ходженскомъ уездъ. Том. 59. – СПб, 1873. – 168 с.; Гребенкин А. Д. Таджики. Узбеки / Туркестанский сборник. Том 57. – Москва, 1872. – С. 173–294.

²⁹ Северцов Н. А. Путешествия по Туркестанскому краю и исследование горной страны Тянь-шаня. – Санкт-Петербург, 1873; Федченко А. П. Путешествие въ Туркестанъ. Томъ I. Часть II. Въ Коканскомъ ханствъ. – Москва, 1875; Радлов В. В. Средняя Зеравшанская долина / Веселовский Н. И., Лерх П. И. Записки ИРГО, по отделению этнографии. Том. 6. – Санкт-Петербург, 1880; Миддендорф А. Очерки Ферганской долины. – Санкт-Петербург, 1882.

shuningdek, M.A.Terentev, L.N.Sobolev, I.Virskiy hamda N.F.Sityankovskiylarning statistik to'plamlari kiradi³⁰.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, O'rta Osiyoga XIX asrda tashrif buyurgan rus sayyohlarining "Safarnoma" turkumidagi asarlari, shuningdek, turli ekspeditsiyalar natijalari hududni ilmiy jihatdan o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi bobning "*Xorij sayyohlarining "Safarnoma"lari O'rta Osiyo etnotoponimlarini o'rganishda manba sifatida*" deb nomlangan navbatdagi paragrafida O'rta Osiyoga tashrif buyurgan osiyolik, yevropalik va amerika (AQSH)lik sayyohlarning "Safarnomalar"ining ilmiy tahlili ochib berilgan.

Ma'lumki, XIX asrda O'rta Osiyo xonliklari qo'shni Eron, Afg'oniston, Usmonli Turkiya, Hindiston va boshqa hududlar bilan doimiy ravishda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy aloqalarni olib borgan. Masalan, 1812-yilda O'rta Osiyoga hind sayyohi Mir Izzatuloh³¹ kelgan bo'lib, uning "Safarnoma"sida *Mintepa*, *Ming kishlak* (*Ming qishloq*), *Korakalpok* (*Qoraqalpoq*), *Airap khee* (*Arabxona*), *Nughai saroy* (*No'g'ay saroy*) kabi etnotoponimlar haqida ma'lumot berilgan³².

Ushbu davrda hindistonliklardan tashqari, eronlik sayyohlar, xususan, 1841-yilda Eron shohi Muhammad Qojarning elchisi Muhammad Alixon G'ofur³³ va 1851-yilda Mirzo Rizoquli Hidoyat (Iolaboshi)³⁴ Xiva xonligi, 1844-yilda Abbos Qulixonning Buxoro amirligiga qilgan tashrifi³⁵ tafsilotlari saqlanib qolgan. Garchi, ushbu asarda etnotoponimlar miqdori juda kam bo'lsa-da, etnotoponimlarning shakllanishiga asos bo'luvchi *ersoli*, *go'klan*, *soruuq*, *taka*, *solur*, *xitoy-qipchoq*, *qoraqirg'iz* kabi etnonimlar haqida ma'lumotlar qayd etiladi.

Ushbu davrda O'rta Osiyoga hindistonlik, eronlik sayyohlardan tashqari, turkiyalik sayyohlar ham tashrif buyurgan. Masalan, Mehmet Amin Afandining asari³⁶da Xiva xonligi gidronimlari – *Shohobod*, *G'azobod*, *Polvon ota*, *Xonobod*, *Arna*, *Qushbegi*, darvozalardan: *Urganch*, *Gandimiyon*, *Serchali*, *Hazorasp*, *G'azobod* kabi nomlar qayd etiladi.

Ushbu davrda Qo'qon xonligiga qo'shni Sharqiy Turkiston orqali bir nechta xitoylik sayyohlar, jumladan, Si Yunshi, Syuy Sun, Vey Yuan tashrif buyurgan. Ushbu

³⁰ Терентьев М. А. Статистические очерки Среднеазиатской России / Записки ИРГО по отделению статистики. Том 4. Туркестанский сборник. Т. 90. – СПб, 1873; Соболев Л. Н. Географическая и статическая сведения о Зерафшанскомъ округъ. – Санкт-Петербургъ, 1874; Вирский И. Статическая сведения о Зерафшанскомъ округъ: этнографический, сельско-хозяйственный и общесословный составъ населения округа за 1872 годъ / Туркестанский сборник. Т. 123. – Санкт-Петербургъ, 1876; Ситянковский Н. Ф. Заметки о Бухарской части долины Зерафшана / Туркестанский сборник. Т. 473. – Ташкентъ, 1900.

³¹ Путешествие Мир Иззет Уллы в Кокандское ханство в 1812 г. / Труды Среднеазиатского государственного университета им. В. И. Ленина. Новая серия, Вып. 78. –Ташкент, 1956. – С. 41-52.

³² Meer Izzat-oolloh. Travels in Central Asia by Meer Izzat-oolloh in the years 1812–1813. – Calcutta: Council House street, 1872. – P. 45–86.

³³ Мухаммад Алихон Гафур. Хоразм сафари кундаликлари. – Тошкент, 2009.

³⁴ Relation de l'ambassade an Kharezim (Khiva) de Riza Qonlykhan. Pullee, Traduit et annote par Ch. Schefer (Paris, 1876–79); Ridaqulixan. Sifarotnama-i Xarazm. – Tehran, 1876.

³⁵ Аббос Қулихон. Бухоро сафарномаси. (Амир Насруллоҳ ва Мухаммадшоҳ Қожар ўртасидаги дипломатик муносабатларга доир. 1844 йил.) / Таржимон Исмоил Бекжонов. – Тошкент, 2019. – 119 б.

³⁶ Mexmet Emin Efendi. Istanbul'dan Orta Asya'ya seyahat. – Anqara, 1986. – 159 b.

“Safarnomalar”³⁷da Sharqiy Turkistondagi *Qoshg‘ar, Yangi Xisor, Yorkend, Qorashar, Uch turfan, Aksu* kabi yirik toponimlar tilga olinadi.

Mazkur davrga oid manbalarda Qo‘qon xonligi va Sharqiy Turkiston o‘rtasida savdo aloqalari ham yaxshi yoritilgan bo‘lib, bu kabi ma‘lumotlar yorquentlik karvonboshi Muhammad Amin Yorkandiy esdaliklarida uchraydi³⁸. Ushbu esdaliklarda *Mingtepa, Aravon, Nog‘orachaldi, Oqsolur, Qonjig‘ali* kabi etnotoponimlar qayd etilgan.

Rossiya imperiyasi va Buyuk Britaniyaning O‘rta Osiyodagi ta‘sir doiralari uchun kurashi natijasida XIX asr birinchi choragidan boshlab yevropaliklarning muntazam ravishda hududga tashrifi kuzatildi. Bunday sayohatchilar qatoriga A.Konolli, A.Byorns, J.Ebbot, J.Vulf kabilarni kiritish mumkin³⁹. To‘g‘ri, ularning asarlarida etnotoponimlar kam uchraydi, lekin mavjud geografik ma‘lumotlar hudud to‘g‘risidagi umumiy fikrlarni shakllantirishda muhim hisoblanadi.

O‘zining etnografik, geografik, toponimik, tarixiy ahamiyati bo‘yicha muhim bo‘lgan mashhur “Safarnoma”, shubhasiz, A.Vamberining asarlari hisoblanadi. Uning “Markaziy Osiyo geografik nomlari” asarida mintaqadagi 600 dan ortiq joy nomlari tavsifi ochib berilgan⁴⁰. Misol uchun, mazkur sayyohning Xiva xonligidagi 32 shahar nomlari, shuningdek, ushbu shaharlar tarkibidagi *Kungrat (Qo‘ng‘irot), Mangit (Mang‘it), Khoha Ili (Xo‘jayli), Chimboy (Chimboy), Kiptchak (Qipchoq), Khitay (Xitoy)* kabi etnotoponimlar haqida muhim ma‘lumotlar berilgan.

Ushbu davrda fransuz va nemis sayyohlarining mintaqaga tashrifi natijasida yaratilgan asarlari ham hudud etnotoponimlarini o‘rganishda muhim manbalardan hisoblanadi. XIX asrning 70-yillarida Rossiya va Sibir orqali Turkistonga tashrif buyurgan er-xotin Uyfalvilar o‘lka tarixiga oid qimmatli ma‘lumotlar qoldiradi⁴¹. Masalan, Mariya de Uyfalvining o‘z asarida Farg‘ona vodiysiga alohida e‘tibor qaratilib, u yerdagi *Akboura (Oqbo‘ra), Karaboura (Qorabo‘ra), Kurama (Qurama)* kabi etnotoponimlar to‘g‘risida muhim ma‘lumotlar berilgan.

1880-1887-yillarda Turkistonga jami 4 marotaba tashrif buyurgan boshqa bir fransuz sayyohi Gabriel Bonvaloning asarlarida Farg‘ona vodiysidagi qirg‘izlar bilan bog‘liq *Karakirghiz (Qoraqirg‘iz), Kirghiz sarou (Qirg‘izsaroy), Kara kiz (Qoraqiz)*

³⁷ Кузнецов В. С. Цинская империя на рубежах центральной Азии (вторая половина XVIII – первая половина XIX в.). – Москва: Наука, 1983. – 127 с.; Садвакасов С. Г. Китайские документы по истории Восточного Туркестана, Средней Азии и Казахстана XIV–XIX вв.). – Алматы: Гылым, 1994. – 272 с.; Хафизова К. Ш. Китайская дипломатия в центральной Азии (XIV–XIX). – Алматы: Гылым, 1995. – 288 с.; Кўлдошев Ш. Т. Қўқон хонлиги ва Хитой (Чинг империяси) ўртасидаги дипломатик муносабатлар. – Тошкент: ТДШИ, 2019. – 240 б.; О‘sha muallif: Қўқон хонлиги ва Шаркий Туркистон: сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқалар. – Тошкент: Akademnashr, 2019. – 256 б.

³⁸ Fletcher J. The Cambridge history of China. Vol. 10 Late Ching 1800–1911. Part 1. – London: Cambridge University Press, 1978. – P. 360–365.

³⁹ Conolly A. Journey to the north of India overland from England through Russia, Persia and Afghaunistaun. Vol. 1. – London, 1834; Alexander B. Travels into Bokhara. Vol 1. – London: John Murray, Albemarle street, 1829. – 398 p.; O‘sha muallif: Travels into Bokhara. Vol 2. – London: John Murray, Albemarle street, 1834. – 508 p.; O‘sha muallif: Travels into Bokhara. Vol 3. – London: John Murray, Albemarle street, 1834; Abbott J. Narrative of a journey from Herat to Khiva, Moscow, and St. Petersburg, during the late Russian invasion of Khiva; some account of the court of Khiva and the kingdom Khaurism. Vol. 1. – London, 1843; Wolff J. Narrative of a mission to Bokhara, in the years 1843–1845. – New York, 1845.

⁴⁰ Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 35.

⁴¹ Ujfalvy Ch. E. Expedition scientifique française en Russie, en Sibirie et dans le Turkestan. Le Kohistan, le Ferghanah et Kouldja avec un appendice sur la Kachgharie. Vol.1. – Paris: Ernest Leroux, 1878. – 170 p.; Ujfalvy Burdon M. de. De Paris a Samarcande, le Ferghanah, le Kouldja et la Sibirie occidentale, impressions de voyage d’une parisienne. – Paris: Hachette, 1880. – 420 p.

kabi etnotoponimlar qayd etilgan⁴². Kelib chiqishi shvetsariyalik sayyoh Anri Mozerning asarida esa Buxoro amirligidagi *Qirg'iz, Ming, Do'rmon, Arabariq* kabi etnogidronimlar aks etgan⁴³.

Etnogidronimlar bo'yicha nemis sayyohi Aleksandr Petsxoldning Turkistonga qilgan safari natijasida yozilgan asari ham muhim manba hisoblanadi.⁴⁴ Muallif ushbu asarda Xiva xonligidagi *Uigur-Jab (Uyg'uryop), Naiman-Jab (Naymanyop)* kabi ariqlar, *Nukus (Nukus), Kungrad (Qo'ng'iroq), Kipchak (Qipchoq)* singari kanallar nomi qayd etgan. Shuningdek, muallif o'z asarida Toshkentdan Qo'qon xonligiga olib boradigan yo'lda joylashgan *Nogai-Kurgan (No'g'ayqo'rg'on), Kara-Kypsak (Qoraqipchoq), Kurama (Qurama), Kara-Bura (Qorabo'ra)* kabi etnotoponimlar haqida ham muhim ma'lumotlarni yozib qoldirgan.

XIX asrda O'rta Osiyoga tashrif buyurganlar orasida AQShlik sayyohlar o'zlarining daliliy materiallarga boyligi bilan ajralib turadi. Ular qatorida Mak Gahan, G.Lansdeyl va Y.Skaylarni alohida ko'rsatish mumkin⁴⁵. AQShlik sayyohlarning "Safarnomalar"i boshqa xorijlik sayyohlarning asarlaridan ma'lumotlarga boyligi, ko'proq etnografik kuzatuvlarga asoslanganligi, asar yozilish tilining soddaligi bilan farq qiladi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, qo'shni mamlakatlardan XIX asrda O'rta Osiyoga tashrif buyurgan sayyohlarning asosiy missiyasi diplomatiya yoki maxsus topshiriq bo'lib, safarnomalari ham mazmunan shunga mos tarzda shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Safarnomalardagi tarixiy toponimlarning tasnifi va etnonimik tarkibi**" deb nomlangan. Ushbu bobning "**Etnotoponimlarning tuzilishi hamda ma'nosiga ko'ra tasnifi**" nomli birinchi paragrafida manbalar va xaritalarda uchraydigan toponim hamda etnotoponimlarni tasnif hamda tartiblashga oid jihatlar yoritilgan.

O'rta Osiyoning xonliklar davri, shuningdek, Turkiston general gubernatorligi tasarrufiga kiritilgan viloyatlarning XIX asrga oid etnotoponimlarini quyidagicha tasnif qilish o'rinli, deb topildi:

1. Etnotoponimlarning qanday turdagi obyektini nomiga asos bo'lishiga ko'ra turlari. Etnotoponimlar turli obyektlarni atab kelinishi jihatidan bir nechta guruhlarga bo'linadi:

a) tabiiy-geografik muhitga bog'lik ravishda paydo bo'lgan etnotoponimlar. Ushbu tipdagi etnotoponimlarning paydo bo'lishida etnosning yashash muhiti, hududi va joylashgan o'rni muhim rol o'ynaydi. Masalan, *Qoradaryo, Qizilsuv, Kattasoy* kabi gidronimlar, *Oqtog', Qoratog', Qiziltog'* kabi oronimlarda hudud tashqi tabiiy xususiyati nom shakllanishiga asos bo'lgan.

Mazkur guruh o'z navbatida quyidagi kichik qismlarga ham bo'linadi:

⁴² Bonvalot G. En Asie Centrale. Du Kohistan... – P. 117–154.

⁴³ Moser H. L'Irrigation en Asie Centrale... – P. 261–266.

⁴⁴ Umschau im Russischen Turkestan : (im Jahre 1871) : nebst einer allgemeinen Schilderung des "Turkestanschen Beckens": mit 27 in den Text gedruckten Holzschnitten und einer oro-hydrographischen Karte / von Alexander Petzholdt. – Leipzig: Verlag von Hermann Fries, 1877. – 396 p.

⁴⁵ Mac Gahan J. A. Campaigning on the Oxus, and the fall of Kxiva. – New York: Happy & Brothers, Franklin Square, 1874; Lansdell Henry. Russian Central Asia (including Kuldja, Bokhara, Khiva and Merv). Vol. 1. –London, 1885; Скайлер Ю. Туркестон: Россия Туркестони, Кўкон, Бухоро ва Гулжага саёҳат қайдлари / Таржимон З. А. Саидбобоев. – Тошкент: O'zbekiston, 2019.

1) **Etnogidronimlar** – bu etnik birlik bilan bog‘liq daryo irmoqlari, soylar, kanal, ariq, quduq, buloq, hovuz kabi suv inshootlarining umumiy nomi bo‘lib, bunday nomlar “Safarnomalar”da juda ko‘p uchraydi (masalan, *Qorag‘uz, Nayman, Uyg‘ur, Suvalli, Sayot, Kenagas* kabi).

2) **Etnooronimlar** etnik birlik bilan bog‘liq tepalik, jarlik, adir, bel, dovon kabi er yuzasini relyefida bo‘rtib chiqqan tabiiy geografik obyektlarning umumiy nomi bo‘lib, bunday nomlar “Safarnomalar”da nisbatan kamroq uchraydi (masalan, *Quramatog‘, Mo‘g‘ultog‘, Do‘rmontog‘, Naymantepa, Uyshuntepa* kabi).

b) ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma‘naviy jarayonlar natijasida paydo bo‘lgan etnotoponimlar. Ushbu tipdagi etnotoponimlar o‘z navbatida *etnooykonimlar* va *etnourbonimlarga* bo‘linib, ular aholining o‘ziga xos etnoijtimoiy holatini namoyon qiladi.

Etnooykonimlar etnotoponimlar tarkibidagi eng ko‘p uchraydigan turi bo‘lib, urug‘ nomi bilan aholi yashash maskanlari: shahar, qal‘a, qo‘rg‘on, daha, qishloq, ovul va mahallalarning birlashgan nomi vositasida shakllangan (masalan, **shaharlar:** *Qo‘ng‘irot, Mang‘it, Nukus, Xo‘jayli, Alieli va b.; dahalar:* *Dahai Qang‘li, Dahai G‘oziqo‘ng‘irot, Dahai Besh bola va b.; qishloq va ovullar:* *Bayot, Besh uyli, Kenagas, Xitoy, Nayman* va b.)

2. Etnonimning ma‘no va mazmuniga ko‘ra tasnifi. Rus va xorij sayyohlarining “Safarnomalar”ida da uchraydigan etnotoponimlar mazmun va mohiyatiga qarab quyidagicha tasniflandi:

a) totemlar asosida paydo bo‘lgan etnotoponimlar (masalan, *Bahrin, Kaltatoy, Kerayit, Qo‘ng‘irot* va b.);

b) tang‘a yoki maxsus belgilar nomi asosida shakllangan etnotoponimlar (masalan, *Qiniq, Tuyasutchi, Toshoyoq, Sircheli* va b.);

d) etnik birlik nomida son va miqdor tushunchalari bo‘lgan etnotoponimlar (masalan, *Mingqishloq, Mingtepa, Mingariq* va b.);

e) etnonimning katta va kichikligiga bog‘liq tarzda paydo bo‘lgan toponimlar (masalan, *Kattaming, Kichikming, Kattakenagas* va b.)

f) rang-tus tushunchalari bilan bog‘liq etnotoponimlar (masalan, *Sariqxitoy, Qoraxitoy, Qoraqipchoq, Qoranayman* va b.)

g) aholining mashg‘uloti va kasb-koriga daxldor tushunchalar asosida paydo bo‘lgan etnotoponimlar (masalan, *Tasmachi, Cho‘yanchi, Pichoqchi, Ketmonchi, Egarchi, Sanchqili, Kosagiron, Sayot, Mirishkor* va b.)

h) etnosning yashash joyi, geografik o‘rniga nisbat berilgan etnotoponimlar (masalan, *Tepali, Soylik, Toshkentlik, Chodaklik* va b.)

i) kishi ismlari asosida shakllangan etnotoponimlar (masalan, *Alieli, Tangriberdi qalmoq, Holdar-qipchoq* va b.)

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, joy nomlarini ma’lum bir tasnif orqali o‘rganish tadqiqotning tartibli, tizimli hamda mantiqan izchil bo‘lishiga zamin hozirlaydi. Tarixiy joy nomlari, xususan, etnotoponimlar fanlararo tadqiqot obyekti hisoblanganligi bois ularni tasniflashda ham qo‘yilgan ilmiy muammo doirasini inobatga olish ham muhim ahamiyatga ega.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi “*O‘rta Osiyo etnotoponimlari shakllanishida urug‘-qabila hamda ular tarkibidagi genonimlar va patronimlarning o‘rni*”, deb

nomlanib, u asosan, sayohatnomalarda uchraydigan genonim hamda patronimlarning tahliliga bag'ishlangan.

Ma'lumki, XIX asrga oid rus va xorij manbalarida ham o'zbek urug'lari bilan bog'liq ko'plab etnonimlar va etnotoponimlar qayd etilgan. O'lkaga tashrif buyurgan sayyohlardan A.Byorns, N.Xanikov, A.Vamberi, A.Xoroshxin va L.Sobolevning "Safarnomalar"ida o'zbek urug'larining ro'yxati keltirilgan bo'lib, ushbu ro'yxat mahalliy aholi tili yoki mintaqa tarixiga doir mahalliy manbalardan yozib olish natijasida shakllantirilgan.

O'rta Osiyo qadimdan turli turkiy qabilalar makoni bo'lib, asrlar davomida ular bilan bog'liq ko'plab hudud nomlari shakllangan. "Safarnomalar" tahlili natijasida shuni qayd etish kerakki, Buxoro amirligi o'zbek urug'lari eng ko'p va zich o'troqlashgan hudud bo'lib, unda 60 dan ziyod o'zbek urug'lari yashaganligi qayd qilingan. Masalan, A.Malikovning tadqiqotlariga ko'ra, "Zarafshon vohasida XVIII asrdan to XX asrning boshlarigacha turkiy xalqlar bilan bog'liq 300 dan ortiq etnonim aniqlangan⁴⁶. Ushbu holat Buxoro amirligidagi o'zbek urug'larining o'troqlashuvi kuchli bo'lganligidan dalolat beradi.

Xiva xonligida yirik o'zbek urug'laridan *Qo'ng'iroq, Xitoy, Qipchoq, Qang'li, Qiyot, Mangit, Nukus, Nayman, Kenagas* kabi etnotoponimlar eng ko'p uchraydi. Bundan tashqari, Xorazm vohasida 92 o'zbek urug'iga mansub *qatag'on, arab, olchin, do'rmon, baxrin, uyshun, tama, uyg'ur, yuz, jaloyir, mesit* kabi urug'lar nomi bilan bog'liq joy nomlari ham qayd etilgan⁴⁷.

XIX asrda Qo'qon xonligiga kelgan Mir Izzatulloh esdaliklarida o'zbek urug'laridan *ming (ming), yooz (yuz), kirk (qirq), khutaye (xitoy), kubchak (qipchoq)* kabi etnonimlar qayd etilgan⁴⁸. Bundan tashqari, Qo'qon xonligida yirik o'zbek urug'laridan *saroy, qarluq, qoraxitoy, qatag'onlar* ham yashagan.

Sayohatnoma, mahalliy manba va xaritalarda quramalar bilan bog'liq *Telov, Xonobod, Jaloyir, Abjaz, Qoraxitoy, Sarimsoqliq, Qoraqiya, Kendirdovon Kreyuchi (Kerovchi)*; turkmanlarning *takya, ota, yovmut, chovdur ersari, qoratoshli, go'klan* kabi urug'lari bilan bog'liq *Go'klanqal'a* va boshqa qishloqlar; qoraqalpoq urug'lari bilan bog'liq *Kenagas, Mo'yten, Nayman, Taypoq, Jamashuy, Daudak* kabi joy nomlari; qirg'iz urug'lari bilan bog'liq *Auaxat, Kisak, Chabqulluq, Bo'ston, Qorabog'ish, Xonobod* kabi nomlar; arablar bilan bog'liq *Arab, Arabon, Arabxona, Jeynov, Avvona, Andxuy, Kattapoy, Arabovul, Arabto'da, Arabto'por* kabi etnotoponimlar; "o'zbek" komponentini o'z ichiga olgan *O'zbekon, O'zbek, Raboti O'zbek, O'zbek saraf, yuqori O'zbekon, qo'yi O'zbekon, O'zbekyop* kabi nomlar; qozoqlarning *Qozoqovul, Qozoqxo'ja, Maydaqozoq, Qozoqoldi, Qozoqota, Qozoqqishloq* kabi nomlar; qirg'iz etnonimi bilan bog'liq *Dam-i qirg'iz, Qirg'izsaroy, Qirg'izon, Qirg'iz, Qirg'izqishloq, Qirg'iz Bo'riqo'm, Qirg'izovul, Qirg'iz-Qipchoq, Qirg'izobod, Qirg'izqo'rg'on, Qirg'izota* kabi etnotoponimlar; tojik aholisi bilan bog'liq *Tojik, Tojikli, Tojikon, Tojikqishloq, Ovul Tojik, Katta Tojik, O'rta Tojik, Kichik Tojik, Tojik mahalla* kabi qishloq nomlari; hindlar bilan bog'liq *Saroyi Mirzacho'l, Saroyi Xo'ja Jo'ybor, Saroyi*

⁴⁶ Маликов А. М. Тюркские этнонимы и этнотопонимы долины Зерафшана (XVIII – начало XX вв.). – Тошкент, 2018. – С. 144–184.

⁴⁷ Атажанова А. Д. Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг... – Б. 32.

⁴⁸ Travels in Central Asia by Meer Izzut-Oollah in the years 1812–1813. – Calcutta, 1872. – P. 100.

Qo'shbeği, Saroyi Hind nomli; yahudiylar bilan bog'liq *Mahallayi-Yahudiyon, Yahudiylar, Djuhut* nomli; afg'onlar bilan bog'liq *Afg'on, Afg'onon, Obi Afg'on* kabi etnotoponimlar qayd etilgan.

Mavjud manbalar tahlili o'zbek urug'lari tarkibida genonim va patronimlarga ega bo'lgan ko'plab aholi guruhlarining mavjudligini ko'rsatmoqda. Masalan, birgina mang'itlarning Samarqandda *temirxo'ja, baurdak, isoboy, guvalak, ko'sa, toz, qorabayir, parchaqora, to'q, baqirchi, mang'it-qozoq, kulatamg'ali, o'n ikki, cho'qay, galabotir, beshkali, bakalchak* kabi 17 ta bo'limi, Kattaqo'rg'onda *uvalay, och, to'q, oq, isaboy, baurdak, qoramang'it* kabi 7 ta bo'limi yashagan.

O'zbek xonliklarida eng ko'p genonimlarga ega bo'lgan urug', shubhasiz, qo'ng'irotlar hisoblanadi. O'zbek qo'ng'irotlari 5 ta bo'limi, o'z o'rnida har biri tarkibida yana ko'plab ichki tarmoqlari ham borki, ushbu genonimlar o'zbek xalqi toponimik qatlamidagi ko'plab joy nomlariga asos bo'lgan. Xiva xonligidagi qo'ng'irotlarning asosiy qismini qoraqalpoq qo'ng'irotlari tashkil qilgan.

O'zbek urug'lari tarkibidagi genonim va patronimlarni tadqiq etishning amaliy ahamiyati shundaki, bir tarafdin ma'lum bir davrdagi aholining murakkab etnik tarkibini tahlil qilish imkoniyati bo'lsa, boshqa tarafdin tarixiy toponimlarning ma'nosini etimologik jihatidan to'g'ri izohlash uchun ham muhimdir.

XULOSA

XIX asrga oid o'zbek xonliklariga tashrif buyurgan rus va xorij sayyohlarining "Safarnomalar"ida qayd etilgan etnotoponimlarning tarixiy manbashunoslik va tarixshunoslik tahlili natijasida quyidagicha **xulosalarga** kelindi:

1. Etnotoponimlar etnik nomning joy nomlaridagi ifodasi sifatida, etnonim bilan toponimlarning o'zaro ichki munosabati natijasida paydo bo'lib, tegishli hududning etnik tarkibiga bevosita va bilvosita ishora qilgan holda, makon hamda zamon haqida qo'shimcha ma'lumot beruvchi tarixiy manba hisoblanadi.

2. Dastlab "Safarnoma"lardagi ma'lumotlar siyosiy maqsadlar uchun xizmat qilgan bo'lsa, mustaqillik yillarida toponimika bo'yicha izlanishlarga yangicha munosabat shakllandi. Natijada, XIX–XX asrlarga tegishli ma'lumotlar mafkuraviy jihatdan qayta tahlil etilib, mahalliy manbalar bilan qiyosiy tarzda o'rganildi va aynan toponimlar tadqiqotiga qaratilgan dissertatsion ishlar himoya qilindi.

3. Etnotoponimlarni tadqiq etishda hozirgi kungacha optimal nazariy-metodologik yondashuvlar, tamoyil va usullar tizimi ishlab chiqilmagan bo'lsa-da, bu borada salmoqli izlanishlar amalga oshirilib, to'plangan tajribalar natijasida toponimlar hamda ularning tabdiliga mos asosiy yondashuvlar banki shakllandi. Buning natijasida tadqiqotning maqsadi, davriy chegarasi, tanlangan yo'nalishi, hudud geografiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy va lingvistik jihatlaridan kelib chiqqan holda izlanishlar olib borish, asosiysi, fanlararo integratsiyani to'g'ri qo'llash orqali xolisona natijaga erishish muhimligi ochib berildi.

4. Toponimik tadqiqotlarda etnotoponimlarni alohida tasnifiy birlik sifatida tadqiq etish, etnotoponimning paydo bo'lishiga asos bo'lgan etnonimning ma'nosi, etimologiyasi va paydo bo'lish davriga asoslanib, tasnifning aynan qaysi turidan foydalanish o'rganilayotgan hudud, davr hamda unga doir manbalardagi etnotoponimlarning salmog'iga bog'liq ekanligi turli tasnif shakllari va ular o'rtasida farqlarni qiyosiy tahlili natijasida ko'rsatib berildi.

5. XIX asrda xonliklar etnik tarkibining asosiy qismini o‘zbeklar, shuningdek, tojiklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar, qirg‘izlar, qisman uyg‘urlar, arablar, hindlar va yahudiylar tashkil qilib, geografik joylashuvi hamda ularning nomi asos bo‘lgan etnotoponimlar orqali ma‘lum bo‘lishi, ushbu jihat sayohatnomalarga ilova tarzida berilgan xaritalarda ham aks etganligi tahlil jarayonida o‘z isbotini topdi.

6. XIX asrda O‘rta Osiyo etnotoponimlari hajm, qanday turdagi obyektning nomiga asos bo‘lishi, tabiiy-geografik muhit, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma‘naviy jarayonlar, etnonimning ma‘no va mazmuni, totem, tamg‘a yoki maxsus belgi, son va miqdor, hajm hamda shakl, rang-tus, etnosning ijtimoiy holati va mavqei, aholining mashg‘ulotlari hamda kasb-kori, etnosning yashash joyi va geografik o‘rni, kishi ismlari asosida shakllanganligi “Safarnomalar”ning tahlili natijasida ko‘rsatib berildi.

7. Hudud nomi doim ham o‘sha joydagi urug‘ va qabila tarkibiga ishora qilmasligi, ba‘zan ushbu nomlar katta urug‘lar, shaxs yoki geografik obyektlar nomidan shakllanib, shu joy aholisi uchun meros sifatida o‘tishi aniqlanib, “Safarnomalar”da uchraydigan ba‘zi ta‘riflar, ma‘lumotlar va aholini tarkibiga oid mulohazalar tanqidiy tahlil etilishi, ulardagi ma‘lumotlar mahalliy manbalar bilan qiyosiy solishtirilib, so‘ngra xulosaga kelish zaruriyati mavjudligi ochib berildi.

Tanlangan mavzuni tadqiq etish jarayonida quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. XIX asr “Safarnomalar”ida keltirilgan etnotoponimlarning alohida ko‘rsatkichlari tushirilgan interaktiv xaritasini yaratish hamda “Etnografiya, etnologiya va antropologiya” mutaxassisligi talabalarini uchun qo‘shimcha manba sifatida o‘quv jarayonida foydalanish.

2. Etnotoponimlar va ularning tarixiy ahamiyati, turli nomlarning shakllanishi hamda o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risida “O‘zbekiston tarixi” telekanalida turkum ko‘rsatuvlarni yo‘lga qo‘yish.

3. Hududga oid etnotoponimlar haqida lingvistlar bilan hamkorlikda maxsus monografiya nashr etish hamda O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalari talabalarini Markaziy Osiyo va uning xonliklar davri ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayotini o‘rganishda foydalanishni yo‘lga qo‘yish.

4. Bugungi kungacha saqlanib qolgan etnotoponimlarni viloyat, tuman, qishloq va mahallalarni nomlash jarayonida e‘tiborga olib, tarixiy nomlarni tiklash va saqlab qolishda foydalanish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019. Fil/Tar.21.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

ЗОКИРОВ БЕХЗОДЖОН ИЛХОМЖОН УГЛИ

**ЭТНОТОПОНИМЫ СРЕДНЕЙ АЗИИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ
“ПУТЕВОДИТЕЛЯХ” РУССКИХ И ИНОСТРАННЫХ
ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ XIX ВЕКА**

**07.00.08 – Историография, источниковедение и методы исторических
исследований**

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD)
по историческим наукам

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) была зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за номером № B2021.2.PhD/Tar939.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете востоковедения.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Ученого совета (www.tsuos.uz) и Информационно-образовательном портале “ZiyoNET” (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Дониёров Алишер Худайбердиевич**
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Буриев Аманулла**
доктор исторических наук, ведущий научный сотрудник
Худайберганов Равшан Турабович
доктор философии (PhD) по историческим наукам,
старший научный сотрудник

Ведущая организация: **Национальный университет Узбекистана
имени Мирзо Улугбека**

Защита диссертации состоится «__» _____ 2024 г. в ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном университете востоковедения по адресу: 100047, г. Ташкент, ул. Шахрисабзская, 16. Тел.: (99871) 233-45-21, факс: (99871) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета востоковедения (зарегистрирована за № ____). Адрес: 100060, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 20. Тел.: (99871) 233-45-21).

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2023 года.

(протокол реестра рассылки № __ «__» _____ 2023 г).

А.М. Маннонов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
филологических наук, профессор

Р.А. Алимухамедов
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
филологических наук, доцент

К.Ш. Омонов
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых
степеней, доктор филологических наук,
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В эпоху глобализации, когда современный мир предъявляет новые требования к науке, изучение исторически сложившегося национального и нематериального наследия человечества, его сохранение и передача поколениям является одной из важных задач, возлагаемых на исторические исследования. В связи с этим в мировой науке особое практическое значение в деле сохранения национальных ценностей и нематериального наследия народов приобретают такие области науки, как историческое источниковедение, этнология, лингвистика, ономастика, топонимика, в добавок к истории.

Сегодня в ведущих научно-исследовательских центрах¹ развитых стран мира, в том числе США, Великобритании, Германии, Франции, Бельгии, России, Турции, а также под руководством крупных международных организаций, таких как ООН и ЮНЕСКО, проводится изучение нематериального наследия народов мира, как объектов междисциплинарного исследования, в частности, названий исторических мест, их этнологическое, топонимическое, филологическое исследование, направленное на определение их лингвистических особенностей, исторической этимологии и их содержания. В связи с этим, актуальное значение приобретает развитие исследований в этом направлении, уточнение сведений о местности посредством работы с источниками.

В новом Узбекистане по-прежнему остается важным рассматривать топонимы как часть нематериального наследия и национальных ценностей, а вопрос их более широкого вовлечения в исследования в русле мировой науки находится в постоянном центре внимания научной общественности. Со временем название племени или народа, то есть этнонимы, переводится в название региона и остается в лексике народа в виде этнотопонима. В результате, изучая их, можно будет получить ценные сведения об этническом составе населения в определенный исторический период и его сформировавших этнических компонентах.

Диссертационное исследование в определённой степени служит выполнению задач, обозначенных в Постановлениях ПП-2995 от 24 мая 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы сохранения, исследования и пропаганды древних письменных источников», Указах УП-5181 от 18 января 2018 г. «Об охране объектов археологического наследия и совершенствовании их использования», ПП-60 от 28 января 2022 г. «О Стратегии развития Нового

¹ Многие исследования по истории и этнографии Средней Азии проводятся в таких научных центрах, как: <https://www.ucl.ac.uk/ssees/ucl-school-slavonic-and-east-european-studies-ssees> (School Slavonic and East European Studies; 1915), <https://www.history.ac.uk/about-us> (Institute of historical research; 1921), <http://www.scrss.org.uk/aboutus.htm> (Society for cultural relations with the USSR; 1924), <http://www.idref.fr/029745373/id> (Institute of Soviet and East European studies; 1963), <https://www.centralasianresearch.org/>(London Central Asia Resarch network; 1984), https://indiana.academia.edu/Departments/Uralic_and_Altaic_Studies (Department Uralic and Altaic studies;) <https://ifeac.hypotheses.org/institut> (Institut français d'études sur l'Asie centrale, 1993); <https://iocs.hse.ru/csmecca> (Центр исследований Ближнего Востока, Кавказа и Центральной Азии, 1930); <https://kora.metu.edu.tr/en> (Центр исследований Черного моря и Центральной Азии, 1992); <https://www.gfz-potsdam.de/en/> (GFZ German research center for Geosciences, 1992).

Узбекистана на 2022-2026 годы» Президента Республики Узбекистан², а также в соответствии с Законом Республики Узбекистан от 12 октября 2011 года №303 «О наименованиях географических объектов» и Постановлением «О мерах по регулированию работы в области наименований географических объектов» в соответствии с Законом Кабинета Министров от 16 октября 2012 года № 295 «О наименованиях географических объектов» и других задач, определенных в нормативных правовых документах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан I. “Формирование системы инновационных идей и пути их осуществления для социального, правового, экономического, культурного, духовно–образовательного развития информационного общества и демократического государства”.

Степень изученности проблемы. Учитывая, что изучение работ, связанных с русскими и иностранными туристами, посетившими Среднюю Азию в XIX веке, началось в конце этого века, исследования, связанные с данным вопросом, были разделены на группы хронологически и проблемно следующим образом.

Исследования первой группы проводились с конца 19 века до 30-х годов 20 века, причем в этот период предварительные исследования этнотопонимов проводились В.И. Веселовским, И.Н. Захариным, Д.Н.Логофетом и С.В. Жуковским, М.А. Лялиной, И. В. Мушкетовым, А.И.Добромысловым и В.В.Бартольдом, на основе которых сформировалась область фундаментальных знаний.

Исследования второй группы проводили М.М. Соловьев, Н.А. Хальфин, О.А. Маслова, Д.Ю. Арапов, С.У. Умрзаков, З.И. Агафанова, Азатян А.А., С.П. Поляков, была организована работа отечественных исследователей Ш.Инагамова, С. Толстова, Т. Файзиева, Б. Ахмедова, К. Шониёзова, Х. Дониерова, М. Эрматова, Х. Зияева, Т. Жданко, Б. Х. Кармышевой, С.С. Губаевой. Этот период был более продуктивным, чем первый период, расширились география топонимических знаний, методология, методы исследования и анализа, значительно возросли исследователи и вес исследований.

Исследования третьей группы охватывают период с 90-х годов 20 века по настоящее время и сосредоточены на исследованиях К. Шониёзова, И. Джаббарова, З. Арифхановой, У. Абдуллаева, О. Бориева, А. Ильхомова, и А. Маликова, а также этнотопонимы Т. Эрназарова, А. Атаджанова, А. Туробова, А. Эргашева и Ш. В Эшанкулова, в исследованиях которых среди различных источников дополнительным источником служат работы туристов, посетивших Среднюю Азию.

К четвертой группе относятся зарубежные исследования Д. Т. Вулрича, О. Олуфсена, М. А. Чаплички, Б. Будагова, С. Леви, С. Н. Абашина, Анке фон Кюгельген, С. Беккера, П. Л. Роудика, А. С. Моррисона, П. Голдена, Ф. Старра

² <https://lex.uz/docs/5841063>

и П. Сартори, исследовавшие некоторые аспекты охвата топонимов Центральной Азии в путеводителях. Конечно, большинство этих исследований написано под влиянием европоцентризма, но они важны как еще один внешний момент и соображение при анализе топонимов, относящихся к региону.

